

## Korxonalarda investitsiya boshqaruvining zamonaviy modellari: real sektor misolida

Dildora Erkinovna Salimova

O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining real sektor korxonalarida investitsiyalarni boshqarish jarayonlari va zamonaviy modellarning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, investitsiya boshqaruvining xalqaro tajribasi bilan milliy yondashuv o'rtaqidagi o'xshashlik va farqlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari real sektor korxonalarida samarali investitsiya boshqaruvini yo'lga qo'yish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** investitsiya boshqaruvi, real sektor, portfel modeli, diskontlangan pul oqimlari, real opsiyonlar, risklarni boshqarish, investitsion muhit, iqtisodiy barqarorlik

## Modern models of investment management in enterprises: on the example of the real sector

Dildora Erkinovna Salimova

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

**Abstract:** This article analyzes the investment management processes and features of the application of modern models in real sector enterprises of the Republic of Uzbekistan. The article also provides a comparative analysis of the similarities and differences between the international experience of investment management and the national approach. The results of the study show that the establishment of effective investment management in real sector enterprises is of great importance in ensuring economic stability, accelerating innovative development and strengthening competitiveness.

**Keywords:** investment management, real sector, portfolio model, discounted cash flows, real options, risk management, investment environment, economic stability

### Kirish

Investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotida, ayniqsa real sektor korxonalarida, ishlab chiqarishni kengaytirish, modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishning

asosiy manbai hisoblanadi. Kapital qo‘yilmalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi ishlab chiqarish qurollarini xarid qilishga, balki texnologiyalarni yangilash, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etishga ham xizmat qiladi. Shu bois investitsiya siyosati va ularni samarali boshqarishning ilmiy asoslangan modellari korxonalar faoliyatining barqarorligini belgilovchi strategik omil sifatida e’tirof etiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida investitsiyalarni jalg etish va ularni oqilona boshqarish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun dolzarb masalaga aylangan. Xususan, sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya, qishloq xo‘jaligida zamonaviy irrigatsiya usullari va agrotexnologiyalarni joriy etish, xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli yechimlardan foydalanish bevosita investitsiyaviy resurslarga bog‘liqdir. Demak, real sektorning rivojlanish sur’ati ko‘p jihatdan investitsiyalar hajmi va ularni samarali boshqarish mexanizmlariga chambargas aloqador.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar jarayonida investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy kapitalni jalg etish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish va mahalliy korxonalarda investitsion faoliyekni oshirish bo‘yicha qator huquqiy va institutsional choralar ko‘rildi. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun<sup>1</sup>, shuningdek, yirik davlat dasturlari real sektorni rivojlantirish va investitsiya oqimlarini oshirishga qaratilgan muhim qadamlar bo‘ldi. So‘nggi besh yil davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi deyarli 2,7 baravarga oshdi. Shuningdek, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning shu davriga nisbatan 29,8 trillion so‘m ko‘proq mablag‘ sarflangan<sup>2</sup>. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotida investitsion risklarni kamaytirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda investitsion loyihalarning monitoringini kuchaytirish masalalari kun tartibida turibdi.

Ayniqsa, real sektor korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va boshqarishda zamonaviy modellarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Chunki an’anaviy yondashuвлar ko‘pincha qisqa muddatli samaradorlikni hisobga oladi, ammo bugungi bozor iqtisodiyotida noaniqlik va risk omillari kuchayib borayotgan bir sharoitda zamonaviy investitsiya boshqaruv modellari - portfel yondashuvi, diskontlangan pul oqimlari (DCF), real opsonlar va riskga asoslangan boshqaruv kabi usullar - uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Investitsiyalarni boshqarish - bu kapital qo‘yilmalarni samarali jalg qilish, ularni rejalashtirish, moliyaviy va iqtisodiy jihatdan baholash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni aniqlash hamda mavjud resurslardan oqilona foydalanish jarayonidir. Ushbu jarayonning mohiyati shundaki, u investitsiya loyihalarini faqat moliyalashtirish

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>

<sup>2</sup> [https://stat.uz/img/images/invest-eng\\_p42457.pdf](https://stat.uz/img/images/invest-eng_p42457.pdf)

bilan cheklanmay, balki ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga ham qaratiladi.

An'anaviy yondashuvlarda investitsiya loyihalari odatda foyda normasi, sof foyda hajmi, to'lov muddati kabi ko'rsatkichlarga asoslanib baholangan. Ushbu mezonlar qisqa muddatli iqtisodiy natijalarni aniqlashda ma'lum darajada foydali bo'lsa-da, bugungi global iqtisodiy muhitda tobora kuchayib borayotgan bozor tebranishlari, moliyaviy risklar, xalqaro raqobat va noaniqlik sharoitlari ushbu yondashuvni yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Chunki faqatgina foyda normasi yoki to'lov muddati asosida qabul qilingan qarorlar korxonalarini uzoq muddatda moliyaviy barqarorlikdan mahrum qilishi mumkin.


Shu sababli zamonaviy investitsiya boshqaruv modellaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Bozor risklarini hisobga olish - loyihalarning turli iqtisodiy, siyosiy va tashqi omillar ta'sirida o'zgarishini baholash imkonini beradi.

- Kelajakdagi noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish - real opsonlar modeli singari yondashuvlar yordamida korxonalar o'z qarorlarini bozor holatiga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

- Kapital samaradorligini oshirish - sof joriy qiymat (NPV), ichki rentabellik normasi (IRR) kabi ko'rsatkichlardan foydalanish orqali kapital qo'yilmalar natijadorligi yuqori aniqlikda hisoblab chiqiladi.

- Diversifikatsiya orqali xavfni kamaytirish - portfel yondashuvi asosida investitsiya loyihalarini turli sohalar va aktivlarga taqsimlash korxonalarini moliyaviy yo'qotishlardan himoya qiladi.



1-rasm. Zamonaviy investitsiya boshqaruv modellari afzalliklari<sup>3</sup>

Demak, zamonaviy investitsiya boshqaruv modellari korxonalarga faqat daromadlilikni emas, balki barqarorlikni ham ta'minlaydigan keng qamrovli vositalar

<sup>3</sup> Ma'lumotlar asosida mualif tomonidan ishlandi

majmuasini taklif etadi. Bu esa real sektor sharoitida investitsiyalarni samarali boshqarishning muhim omili hisoblanadi.

Investistiyalarni boshqarish modellari asosan 5 ta tashkil etib quyidagilar hisoblanadi.

1. Portfel modeli . Korxona investitsiyalarini turli loyihalar yoki sohalarga taqsimlash orqali risklarni kamaytirish va umumiyl rentabellikni oshirish imkonini beradi. Real sektor korxonalarini ushbu yondashuv orqali ishlab chiqarishning bir nechta yo‘nalishlarini birgalikda rivojlantirishi mumkin.

2. Diskontlangan pul oqimlari (DCF) modeli . Investitsiya loyihalarining keljakdagi pul oqimlarini hozirgi qiymatga keltirib baholash imkonini beradi. Bu model, xususan, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yoki yangi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda qo‘llaniladi.

3. Real opsonlar modeli . Korxonalarga bozor sharoitidan kelib chiqib, investitsiya qarorlarini qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi. Masalan, qishloq xo‘jaligi yoki energetika kabi sohalarda ushbu model yuqori noaniqlik sharoitida samarali qo‘llaniladi.

1. Portfel modeli  
Investitsiyalarni turli loyihalarga taqsimlash orqali risklarni kamaytiradi va umumiyl rentabellikni oshiradi.

2. Diskontlangan pul oqimlari (DCF) modeli  
Keljakdagi pul oqimlarini hozirgi qiymatga keltirib baholash orqali investitsiya qarorlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Real opsonlar modeli  
Bozor sharoitiga qarab investitsiya qarorlarini qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi.

4. Riskga asoslangan boshqaruv modeli  
Moliyaviy xavflarni baholash va ularni minimallashtirish imkonini beradi.

## 2-rasm. Investistiyalarni boshqarish modellari<sup>4</sup>

4. Riskga asoslangan boshqaruv modeli . Investitsiya loyihalarining moliyaviy xavflarini baholash va ularni minimallashtirish imkonini beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, xomashyo va import resurslariga bog‘liq sanoat korxonalarini uchun dolzarbdir.

Real sektor korxonalarida investitsiya boshqaruvi turli sohalarda o‘ziga xos yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, sanoat korxonalarini da diskontlangan pul oqimlari (DCF) va portfel modellari keng qo‘llanilib, ular orqali yangi ishlab chiqarish liniyalarini tashkil etish, mavjud quvvatlarni kengaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu yondashuv sanoat tarmoqlarida uzoq muddatli barqarorlik va foydalilikni ta’minlash imkonini beradi.

<sup>4</sup> Ma'lumotlar asosida mualif tomonidan ishlandi

Qishloq xo‘jaligi da esa real opsonlar modeli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu model hosildorlik darajasiga va bozor narxlarining o‘zgaruvchanligiga bog‘liq holda investitsiya qarorlarini moslashtirish imkonini beradi. Masalan, ob-havo sharoitlari yoki global bozor talabiga qarab qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari investitsiya hajmini o‘zgartirishi, resurslarni qayta taqsimlashi mumkin.

Xizmat ko‘rsatish sohasi da esa portfel modeli yordamida xizmat turlarini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish va barqaror daromad oqimini shakllantirishga intilish kuzatilmoqda. Turli xizmat turlarini birlashtirish orqali kompaniyalar talabning mavsumiy yoki kon'yunkturaga bog‘liq o‘zgarishlariga nisbatan chidamli bo‘lib, moliyaviy barqarorlikka erishadi.

Biroq real sektor korxonalarida investitsiya boshqaruvida qator muammolar ham mavjud. Ulardan birinchisi - moliyaviy resurslarning yetishmasligidir. Ko‘plab korxonalar tashqi moliyalashtirish manbalariga to‘liq kirish imkoniga ega emas. Ikkinchi muammo - risklarni to‘liq hisobga olmaslik, ya’ni investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida bozor, texnologik yoki valyuta xavflarini yetarlicha e’tiborga olinmaslikdir. Uchinchidan, innovatsion yondashuvlarning sust qo‘llanilishi ko‘plab imkoniyatlarning boy berilishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, real sektor korxonalari uchun sezilarli imkoniyatlar ham mavjud. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan investitsion qo‘llab-quvvatlash dasturlari ichki investorlar uchun muhim rag‘bat manbai hisoblanadi. Xorijiy kapital oqimining ortib borishi esa yangi texnologiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga sharoit yaratmoqda. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali investitsiya boshqaruvini yanada samarali qilish, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish va shaffofligini ta’minlash imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, real sektor korxonalarida investitsiya boshqaruvi tizimi mavjud muammolarga qaramay, davlat qo‘llab-quvvatlashi, xorijiy sarmoya va raqamli transformatsiya orqali yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarilish imkoniyatiga ega.

### Xulosa

Korxonalarda investitsiya boshqaruvining zamonaviy modellari real sektor misolida olib qaralganda, ularning samaradorligi bevosita iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikka ta’sir ko‘rsatishi aniqlanadi. Diskontlangan pul oqimlari (DCF), portfel yondashuvi va real opsonlar kabi modellarning qo‘llanilishi korxonalarga investitsiya qarorlarini ilmiy asoslangan holda qabul qilish, resurslardan oqilona foydalanish va bozor sharoitlariga moslashuvchan yondashish imkonini bermoqda. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etishda DCF va portfel modellari muhim ahamiyat kasb etayotgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi sohasida hosildorlik va tashqi omillarga bog‘liq qarorlar qabul qilishda real opsonlar modeli ustunlik qilmoqda. Xizmat ko‘rsatish

tarmoqlarida esa diversifikatsiyalash orqali risklarni kamaytirish va barqaror daromad oqimini shakllantirish imkoniyati ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, investitsiya boshqaruvi jarayonida bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ular moliyaviy resurslarning yetishmasligi, risklarni to'liq hisobga olmaslik va innovatsion yondashuvlarning sustligi bilan izohlanadi. Biroq davlat tomonidan yaratilayotgan investitsion qo'llab-quvvatlash dasturlari, xorijiy kapital oqimining ortishi hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyatlari ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Umuman olganda, real sektor korxonalarida investitsiya boshqaruvining zamonaviy modellari nafaqat moliyaviy samaradorlikni ta'minlash, balki korxonalarni innovatsion rivojlanish yo'liga yo'naltirish, raqobatbardoshlikni oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga hissa qo'shishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, investitsiya boshqaruvining ushbu modellari O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarida ham asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari. - <https://www.imv.uz>
2. Jahon banki (2023). Investment Management in Emerging Markets . Washington, D.C.
3. IMF (2022). Investment Risk and Portfolio Diversification in Developing Countries . Washington, D.C.
4. OECD (2021). Financing Growth and Sustainable Development . Paris: OECD Publishing.
5. Damodaran, A. (2020). Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset . Wiley Finance.
6. Ross, S.A., Westerfield, R., Jaffe, J. (2019). Corporate Finance . McGraw-Hill Education.
7. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. Nonlinear Engineering, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
8. Aminova, N. U. (2021). Development of foreign economic activities in the republic of uzbekistan through attracting foreign investment. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(8), 216-221.
9. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of

China's Sovereign Wealth Funds. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 2(1), 1-8.

10. Aminova, N. U. Q., Zukhurova, M. S. Q., & Tulagankhujaeva, I. S. Q. (2021). INVESTMENT PROCESS AND INVESTMENT POLICY. Science and Education, 2(2), 219-225.
11. Aminova, N. U. (2021). Development of foreign economic activities in the republic of uzbekistan through attracting foreign investment. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(8), 216-221.
12. Qizi, A. N. U. (2023). ISSUES OF FINANCING OF INVESTMENT PROJECTS ON THE BASIS OF SYNDICATE LOANING. Open Access Repository, 10, 8-14.
13. Aminova, N. XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH. Ўзбекистон республикаси суғурта бозори учун кадрлар тайёрлашнинг ҳозирга ҳолати, муаммолари ва ривожланиш истиқболлари, 132.
14. Aminova, N. U. Q., Zukhurova, M. S. Q., & Tulagankhujaeva, I. S. Q. (2021). INVESTMENT PROCESS AND INVESTMENT POLICY. Science and Education, 2(2), 219-225.
15. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.